MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING TASNIFI



Saydullayev Ulug‘bek Ubaydullayevich
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy unsurlardan hisoblangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning tasniflanishi va turli olimlar qarashlarining ilmiy tahlili keltirilgan. Shuningdek, qadriyatlar bo‘yicha yondashuvlar tahlili asosida uning muhim xususiyatlari bo‘yicha xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar. Globalizatsiya, inson, qadriyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, aksiologik nazariyalar, aksiologik ta’limot, “oliy inson” g‘oyasi.

Аннотация. В данной статье представлена сущность национальных и общечеловеческих ценностей, их классификация и научный анализ взглядов различных ученых, которые считаются основными элементами, обеспечивающими развитие общества. Также на основе анализа подходов к ценностям сделан вывод о ее важных особенностях.

Ключевые слова. Глобализация, человек, ценности, национальные и общечеловеческие ценности, аксиологические теории, аксиологическое учение, идея «высшего человека».

Annotation. This article presents the essence of national and universal values, their classification and scientific analysis of the views of various scientists, which are considered the main elements ensuring the development of society. Also, based on the analysis of approaches to values, a conclusion was made about its important features.

Key words. Globalization, man, values, national and universal values, axiological theories, axiological doctrine, the idea of a “superior man”.

Dunyoda kechayotgan shiddatli o‘zgarish va yangilanishlar jamiyatda shakllangan ijtimoiy qadriyatlar tizimiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Texnologiyalar, globalizatsiya, iqtisodiy o‘zgarishlar, madaniy almashinuvlar va boshqa omillar natijasida insonlarning hayot tarzi, urf-odatlari va qadriyatlari o‘zgarmoqda. Birgina texnologik rivojlanish natijasida Internet va mobil texnologiyalar jamiyatdagi ko‘plab sohalarni o‘zgartirib yubordi. Odamlar o‘rtasidagi muloqot, ish usullari, ta’lim va hatto dam olish tarzlari yangilikka yuz tutdi.

Jahondagi ko‘plab nufuzli universitetlar va ilmiy tadqiqot markazlarida ijtimoiy munosabatlarning tezkor dinamikasi sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar muammosi tadqiq qilib kelinmoqda. Xususan, AQShning Garvard Universiteti (Harvard University), Buyuk Britaniyaning Oksford Universiteti (University of Oxford), Yaponiyaning Tokio Universiteti (University of Tokyo) va boshqa ilmiy markazlarda ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy hayot rivoji va globallashuv muammolari, ijtimoiy qadriyatlarning zamonaviy tendensiyalari, Sharq va G‘arb

ijtimoiy qadriyatlarining zamonaviy sharoilarda o‘zgarib borishi kabi muammolar o‘rganib kelinmoqda.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar azal-azaldan yurtimizda ham eng asosiy jabhalardan biri hisoblangan. Butun mag‘ribu-mashriq tomonidan chuqur o‘rganib kelinayotgan boy ma’naviy va ma’rifiy merosimiz ham buni yaqqol isbotlab turibdi. Shu o‘rinda yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarning ilmiy merosiga murojaat qilmiaslikning iloji yo‘q.

Mashhur faylasuf Abu Nasr Forobiy [1] (870-950), “Fozil odamlar shahri” asarida insoniy fazilatlar haqida yozgan bo‘lsa, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy [2] (973-1048) “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida inson tabiati va fazilatlari, uning qadriyatlari haqida fikr yuritgan. Buyuk faylasuf va tabib Ali ibn Sino [3] (980-1037) “Tib qonunlari” asarida insonning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini oliy qadriyat ekanligini uqtirgan. So‘fiy va shoir Ahmad Yassaviy [4] (1103-1166) “Hikmatlar” asarida insoniy axloq-odob masalalarini ko‘targan. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy [5] (1441-1501) “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” [1;2;] kabi asarlarida insonning axloqiy-ma’naviy kamoloti haqida yozgan. Bu mutafakkirlar o‘z davrlarida insondagi fazilat va yaxshilik masalalariga alohida e’tibor qaratgan va bu boradagi qarashlarini asarlarida ifodalab qoldirganlar.

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida qadriyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo‘lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta’rif berishga intilishgan. Holbuki qadriyat aksiologiyaga xos kategoriyadir” [6].

Falsafiy jihatdan “qadriyat” atamasi qadriyatlar nazariyasi, aksiologiyaning (yunoncha axios - qiymat, logos - ta’limot) markaziy tushunchasidir. Falsafiy tafakkur tarixida jamiyat va insonning qadriyatlari haqidagi yorqin gipotezalar, farazlar, ta’limotlar va nazariyalar kelib chiqdiki, ular birgalikda keyingi aksiologik nazariyalarning asosini tashkil qildi. Bunga Suqrotning ezgulik va uni takomillashtirish zarurati haqidagi, Pifagorning go‘zallik, foydalilik haqidagi, Arastuning - faollik orqali baxtga erishish haqidagi, Epikurning do‘stlik haqidagi, Abu Nasr Farobiyning – fozil inson va fazilatli jamiyat haqidagi ta’limotlari misol bo‘la oladi. Keyinchalik F.Bekonning bilim va uni oliy qadriyat ekani haqidagi, Dekartning haqiqatni anglash, tafakkur qilish huquqi va qobiliyati haqidagi, I.Kantning doim maqsad, lekin hech qachon biron maqsadga erishish vositasi sifatida qaralmasligi lozim bo‘lgan oliy qadriyat – inson qadri haqidagi qarashlari paydo bo‘ldi.

Shuni ta’kidlash lozimki, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga qadar qadriyatlar haqidagi ta’limotlar alohida o‘rganilmay, yaxlit falsafiy qarashlarga mushtarak bo‘lgan. Qadriyat tushunchasining mohiyati, qadriyatlar ierarxiyasi haqida alohida savol qo‘yilmagan, turli xalqlar va turli davrlar qadriyatlarining qiyosiy tahlili o‘tkazilmagan. Ayrim aksiologik tushunchalar mualliflari, asosan, o‘z xalqi va ularning ijtimoiy tuzumi oliy qadriyat ekanligidan kelib chiqib, faqat mavjud voqelikka asoslangan ideallarga erishish haqida yozganlar. Shaxsning o‘ziga xos, sub’ektiv qadriyatlarni izlashi aksiologik ta’limot va maktablarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Birinchi bunday maktab “aksiologik transsendentalizm” nomini oldi. Haqli ravishda, nemis faylasufi R.G.Lotze (1817-1881 y.y.) uning asoschisi hisoblanadi. U birinchi marta axloq va estetikaga “qadriyat” tushunchasini kiritdi, uni falsafiy idealizm bilan bog‘ladi. Lotsening izdoshi V.Vindelband (1848-1915 y.y) shunday yozadi: “Lotse “qadriyat” tushunchasini ilgari surganidan va uni mantiq va metafizikaning avvaliga qo‘yganidan beri, qadriyatlar nazariyasini falsafa fanining yangi yo‘nalishi sifatida o‘rnatish boshlandi” [7]. Aynan V.Vindelbandning o‘zi nafaqat ushbu maktabda, balki umuman qadriyatlar nazariyasini yangi falsafaga aylantirishga harakat qilganlar orasida eng muhim shaxs edi. U o‘z qarashlarida nafaqat Lotse ta’limotiga, balki shu bilan birga, I.Kantning falsafa muammolarini tushunish nazariyasiga tayandi.

Yana bir aksilogiya maktabi – “Personalistik ontologizm” qadriyatlar muammosini biroz

boshqacha talqin qiladi. Bu maktabning yirik vakili M.Sheler (1874-1928) bo‘lib, u Yevropa madaniyati va jamiyatining ijtimoiy-axloqiy asoslari inqirozga yuz tutayotganiga e’tibor qaratadi. M.Sheler o‘sha vaqtda Yevropada kuzatilgan “foydaning hamma narsadan ustun ko‘rish va manfaatparastlik”ni bu inqirozga sabab sifatida ko‘rsatadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan falsafa maktablarining hech biri qadriyatlar muammosini e’tiborsiz qoldirmaydi, shu jumladan “qadriyatlarni qayta baholash” shiorini ilgari surgan F.Nisshe ham. Biroq u eskirgan g‘oyalardan voz kechishni emas, balki ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgulik, insonparvarlik, tenglik, adolat tushunchalarini qayta ko‘rib chiqishga chaqirdi. F.Nisshe yagona qadriyat sifatida “oliy inson” g‘oyasini e’lon qildi - “hokimiyatga intilish irodasi bilan chulg‘ab olingan va uning oldida barcha “chala insonlar” titrab turishi kerak bo‘lgan inson” g‘oyasini. Bu falsafa soddalashtirilgan shaklda nemis fashizmining mafkurasiga asos bo‘lgani shubxasiz. Zotan, bu mafkuraning bosh qoidasi - nemislar oliy irq, qolgan barcha xalqlar esa ularga xizmat qilishi lozim bo‘lgan “chala insonlar” ekani haqidagi bayonot edi. F.Nisshening “Zardo‘sht aytganidek” kitobi fashistlar Germaniyasida eng mashhur falsafiy asarga aylangani, urush yillarida uning kichik nashrlari ommaviy tarzda chop etilgani va tarqatilgani bejiz emas.

Aksiologiyadagi yana bir ta’limot - Madaniy-tarixiy relativizm “Hayot falsafasi”ning bo‘limi sifatida namoyon bo‘ldi. Bu bo‘limning mashhur vakili nemis faylasufi V.Diltey bo‘lib, uning g‘oyalari fashizm mafkurachilari tomonidan kam qo‘llanilgan, chunki bu ta’limot akademizmini Gitler Germaniyasida yaxshi tushuna olishmadi. Boz ustiga, uning “Aksiologik tizimlarning ekvivalentligi” haqidagi g‘oyasi ularga mos kelmadi.

Mahalliy olimlardan Q.Nazarov mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini quyidagicha ifodalaydi: “Ma’lumki, qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Ular gohida ideal sifatida kishilarni omilkor faoliyatga undasalar, gohida ma’naviy mezon, axloqiy talab sifatida odamlarning xatti-harakati va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydilar, faoliyatlarini boshqarib yoki yo‘lga solib turadilar. Muayyan qadriyatlarni barqaror qilish butun xalq, millat, davlat yoki qavmlarni bir muddat yoki uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yo‘lida birlashtiradi, ular faoliyatining yo‘nalishini belgilaydi” [8].

Akademik E.Yusupov esa, “Qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyotida shakllangan va rivojlangan, o‘tmishda va hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy va ma’naviy boyliklardir” – deb ta’kidlaydi [9].

Qadriyat tushunchasiga yaxlit ta’rif berishning qiyinligi uning ko‘p qirraliligi va mazmunan boyligidadir. Shuning uchun, ko‘pincha mualliflar o‘z ta’riflariga faqat eng muhim deb hisoblagan xususiyatni kiritadilar. Bundan tashqari, berilgan ta’riflar yig‘indisi ham ushbu konsepsiyaning mazmunini to‘liq ochib bermaydi. Olib borilgan izlanishlar va bir qator ilmiy manbalar tahliliga asoslanib, qadriyatning barcha ta’riflarini umumlashtirib uning ayrim muhim tomonlarini ochib beramiz: Qadriyatlar - inson uchun ahamiyatli bo‘lgan narsa, hodisalar yig‘indisidir. Qadriyatlar - inson uchun foydali, muhim va zarur narsadir. Qadriyatlar - sub’ektning ob’ektga munosabatidir. Qadriyatlar - madaniyat va tamaddun mahsulidir. Qadriyatlar – o‘ziga xos standart bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarni norasmiy tarzda tartibga solib turadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa tarzida qadriyat tushunchasining muhim xususiyatini quyidagilar bilan ifodalash mumkin:

Birinchidan, qadriyat tarixiy ildizlarga ega bo‘lishi lozim, ya’ni u qadriyat maqomiga ega bo‘lgunga qadar muayyan vaqt davomida shakllanish bosqichlarini bosib o‘tgan bo‘lishi, boshqacha aytganda, bir qancha avlodlar tomonidan saqlab kelingan bo‘lishi lozim. Hech bir shartsiz ravishda qadriyat sifatida tan olinishi mumkin bo‘lgan narsa, hodisa yoki g‘oya yo‘q. Qadriyat sifatida tasdiqlanishidan oldin u, qoida tariqasida, e’tiborsizlik, ta’qib va tanqidlar sinovida toblanashi kerak. Va bu nafaqat fikr va vijdon erkinligi yoki inson huquqlari kabi buyuk g‘oyalarga, balki qadriyat deb atash mumkin bo‘lgan har qanday narsaga ham tegishli. Masalan har bir yangilik albatta, istehzo va ta’qiblarga duchor bo‘ladi va faqat yillar o‘tibgina kundalik hayotning e’tirof etilgan ehtiyojiga aylandi.

Ikkinchidan, biror narsa qadriyat deb atalishi uchun u inson va jamiyatning rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Va bu yerda qadriyatning tartibga solish funksiyasini ko‘rsatishning o‘zi yetarli emas, chunki har qanday, hatto irqchilik yoki aqidaparastlik g‘oyalar ham insonlararo munosabatlarni tartibga soluvchi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Qadriyatni tanlashning asosiy mezoni – uning jamiyatdagi rivojlanish qonuniyatlariga mosligi, insoniyat faoliyatining umumiy tendensiyalariga muvofiqlidir. Shuning uchun qadriyatlarni tanlash shaxs, jamiyat va butun insoniyatning izchil rivojlanishi, manfaatlarini hisobga olgan holda chuqur ilmiy xususiyatga ega bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri./Tarj.A.Irisov.-T.:Yangi asr avlodi. 2016. 320b;
2. Al Beruniy, Aburrahmon Muhammad ibn Ahmad. Asarlar. /Tarjimon A.Rasulov/. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. –T. Fan. 1968. 488 B.
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1, 2, 3, 4, 5-kitoblar/ Tarjimonlar: A. Rasulev, K. Mirzaev, U.I. Karimov, A. Murodov/ -T.: Sharq. 2020. 688 B.
4. Yassaviy, Ahmad. Hikmatlar/Tahrir hay’ati: A. Qayumov va va boshq. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi I.Xaqqulov/ - T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1990 - 256 B.
5. Alisher Navoiy. “Lisonut-tayr” (Qush tili). –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1991 y. 176 B.
6. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 11-jild. 2005 y. 365 B.
7. Виндельбанд В. История новой философии в связи с общей культурой и отдельными науками. Спб. 1905. Т.2. С. 379.
8. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – T.: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. – 2004. 22 b.
9. Yusupov E. Falsafa – Toshkent: Sharq, 1999. - B. 323.